



DAVLAT TUSHUNCHASI VA BELGILARI. DAVLAT TIPOLOGIYASI  
VA UNGA FORMATSİYAVİY VA SİVİLİZATSİYAVİY  
YONDASHUVLAR

*IIV Surxondaryo akademik litseyi  
Huquqshunoslik fani o'qituvchisi  
Ko'chkinova Adolat Gulmurod qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola davlat tushunchasi, belgilari, davlat tipologiyasi, yondashuvlar, davlatning rivojlanish tarixi, davlatning paydo bo'lishi nazariyalariga bag'ishlanadi.

**Kalit so'zlar:** Davlat, huquq, jamiyat, mifologiya, sivilizatsiya, feodalizm, quldorlik, atributi, formatsion, ekspulatatsiya.

**Davlat — bu ma'lum hudud, xalq va hokimiyatga ega bo'lgan siyosiy tashkilot bo'lib, jamiyatni boshqarish va tartibga solish uchun yaratilgan mexanizmdir.** «**Davlat» tushunchasi uch xil ma'noda:** birinchidan, davlat yo'li bilan tashkil etilgan hamjamiyatni; ikkinchidan, davlat hokimiyati apparatini va uchinchidan, davlat organlarini ifodalash uchun qo'llanadi.

Davlat tushunchasiga ta'rif berishda quyidagi umumlashgan (ijtimoiy, sinfiy va sof yuridik nuqtai nazardan) yondashuvlar mavjud:

- **Davlat bu** – muayyan hududda oliy hokimiyatni amalga oshiruvchi, maxsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo'lgan, jamiyatdagi barcha ijtimoiy – siyosiy guruhlarning manfaatlarini ifoda etuvchi, ularni birlashtirib va muvofiqlashtirib turadigan siyosiy tashkilot;
- Davlat bu – iqtisodiy va siyosiy jihatdan xukmron bo'lgan sinfning manfaatlariga xizmat qiluvchi siyosiy tashkilotdir;



– Davlat bu – muayyan hududda ommaviy hokimiyatni amalgalashuvchi siyosiy tashkilot.

### Davlatning asosiy belgilari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

**1. Aholining hududiy asosga ko‘ra birlashganligi.** Hozirgi zamон yuridik fanida davlat hududi deganda, muayyan davlatning suvereniteti tadbiq etiladigan doira nazarda tutiladi. Davlat hududi o‘z ichiga quruqlik, suv, yer osti va havo makonlarini qamrab oladi.

**2. Maxsus tarzda tashkil etilgan ushbu davlat mexanizmining samarali faoliyat yuritishi uchun alohida kishilar guruhi, ya’ni, davlat xizmatchilari bo‘ishi taqozo etiladi.** Ushbu shaxslarning asosiy vazifasi jamiyat ustidan boshqaruvni amalgalashuvchi hisoblanadi. Jamiyat siyosiy tizimining boshqa tuzilmalaridan farqli o‘laroq, faqat davlatgina prokuratura va sud organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, qurolli kuchlar, jazoni ijro etish muassasalari kabi organlarga ega bo‘ladi.

**3. Huquq tizimining mavjudligi.** Huquqsiz davlat mavjud bo‘la olmaydi. Huquq davlat hokimiyatini yuridik jihatdan rasmiylashtiradi va shu bilan ularni legitim, ya’ni qonuniy qilib qo‘yadi. Davlat o‘z funksiyalarini huquqiy normalarda amalgalashuvchi oshiradi. Huquq davlat va davlat hokimiyati faoliyatini qonuniylik doirasiga olib kiradi, ularni aniq huquqiy tartibga bo‘ysundiradi.

**4. Soliq tizimiga egaligi.** Davlat aholidan rasmiy tartibda monopol tarzda soliq yig‘ish huquqiga ega. Hud udida yashayotgan barcha shaxslar davlat xazinasiga, ya’ni budjetiga majburiy tartibda qonunchilikda belgilangan soliqlarni to‘lab boradilar. Soliqlardan tashqari davlat foydasiga boshqa yig‘imlar va davlat bojlari ham undiriladi. Ular yordamida davlatning faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan moddiy-moliyaviy baza 116 shakllantiriladi. Ushbu moddiy baza asosida davlat organlari faoliyatini moliyalashuvchi hamda iqtisodiyot, tabiatni muhofaza qilish, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalar yuzasidan davlat dasturlarining amalgalashuvchi oshirilishi ta’milnadi.

**5. Suverenitetga egaligi.** Davlat hokimiyatining hususiyati (atributi) sifatida suverenitet uning ustuvorligi, mustaqilligidan iborat. YA’ni: suverenitet – ma’lum bir hududda oliv hokimiyatga egalik; davlatning ichki va tashqi siyosatdagi to‘la mustaqilligidir. Mamlakat ichkarisida davlat hokimiyatining ustuvorligi quyidagilarni bildiradi:



- ➡ mamlakatning barcha aholisi, barcha partiyalar va jamoat tashkilotlariga nisbatan hokimiyat kuchining universalligi;
- ➡ alohida huquqlari (davlat hokimiyati boshqa har qanday ijtimoiy hokimiyatning, agar u qonunni buzadigan bo‘lsa, har qanday ko‘rinishini bekor qilishi mumkin);
- ➡ davlatdan boshqa hech qaysi ijtimoiy hokimiyat ega bo‘lmagan ta’sir vositalari (huquqni muhofaza qiluvchi organlari, jazoni ijro etish muassasalari va hokazolar)ning mavjudligi.

Davlatning mamlakat ichki va tashqi siyosati, har qanday hokimiyatdan mustaqilligi, o‘zining barcha ishlarini erkin hal etish hamda favqulodda va tanho hukmronlik huquqida aks etadi.

## 2 – §. Davlat tipologiyasi va unga formatsiyaviy va sivilizatsiyaviy yondashuvlar

**Davlatning tipi – muayyan davlatlarga xos bo‘lgan bir xil, muhim va umumiy belgilar yig‘indisidir.**

Davlatlarni tiplarga ajratishda **formatsion** va **sivilizatsion** yondashuvlar mavjud.

➡ **Formatsion yondashuv** - davlatlarni ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanish darajasi, bazis va ustqurmasi, sinfiy mohiyati, maqsadi, vazifalari hamda funksiyalari mezoniga ko‘ra tiplarga ajratishdir.Ushbu yondashuv vakillarining (K.Marks, F.Engels, V.Lenin) fikricha, iqtisodiy jihatdan hukmron bo‘lgan



sinflarning quyi sinflarni ustidan zo‘ravonligini, hukmronligini amalga oshiruvchi tashkilotidir.

Jamiyatda formatsiyalarning almashinuvi iqtisodiy sohadagi ziddiyatlar bilan bog‘liq. Bunday yondashuv bo‘yicha formatsiyalarning yuzaga kelishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishi takrorlanib turadigan jarayondir.

### **Formatsion yondashuvga ko‘ra insoniyat taraqqiyotida to‘rt tipdagi davlat shakllanib kelgan**

➤ **Quldarlik davlati.** Yevropada ilk quldarlik davlatlari mi-l. avv. IXVII asrlarda yuzaga kelgan bo‘lsa, Misrda undan 20 asr oldin mavjud bo‘lgan. Quldarlik davlatlarining iqtisodiy asosini nafaqat ishlab chiqarish qurollari, vositalari balki, yuridik huquq va erkinliklarga ega bo‘lmagan qullarning mehnati ham tashkil etgan. Quldarlik davlatining asosiy vazifasi ekspluatatsiya qilinuvchi qullarning qarshiligini bostirish, sinfiy ezish hisoblangan. Davlatning vazifalari faqat quldarlar manfaatlari yo‘lida, uning umumijtimoiy funksiyalari esa hukmron sinf manfaatla-riga muvofiq keladigan darajada amalga oshirilgan. Shu bois, quldarlik davlatlarida qullarning qarshilik harakatlari tez-tez sodir bo‘lib turganligi, ularning quldarlar hokimiyatiga qarshi yirik isyonlari tarixdan ma’lum (Sitsiliyada,

Kichik Osiyoda qullarning miloddan avvalgi II asrdagi g‘alayonlari, miloddan avvalgi I asrdagi Spartak qo‘zg‘oloni shular jumlasiga kiradi).

➤ **F Feodal davlat.** Bu turdagи davlat Yevropada eramizning VI-IX asrlarida vujudga kelgan. Feodallarning yerga xususiy mulkchiligi feodal davlatning iqtisodiy asosini tashkil etadi. Dehqonlar feodal yerlarida mayda yakka xo‘jalikka ega bo‘lib, yerdan foydalanganliklari uchun hosilning bir qismini to‘lashlari hamda unga tekin ishlab berishlari lozim bo‘lgan. Feodal jamiyat rivojlanib borishi bilan dehqonlarning feodallarga qaramligi davlatning



majburiy choralari bilan yanada ortgan: bunda dehqonlar yerga «biriktirib qo‘yilar» va o‘z xo‘jaliklarini tashlab

ketolmasdilar.Ijtimoiy tengsizlik qonun yo‘li bilan mustahkamlab qo‘yilgan.  
Davlat

hokimiyati sinfiy bo‘lib, to‘la-to‘kis feodallar ixtiyorida bo‘lgan. Davlat hukmron sinfning diktatura (zo‘ravonlik) quroli bo‘lib, uning mulkdor sifatidagi manfaatlarini himoya qilgan.Burjua davlati. Dastlabki burjua davatlari (kapitalistik davlatlar) bundan 200-300 yil muqaddam Yevropa va Shimoliy Amerikada vujudga kelgan. Xususan, ular buyuk fransuz inqilobidan keyin keng

tarqalgan. Burjua jamiyatining xususiyati – rasman mustahkamlangan sinfiy tengsizlikka asoslangan o‘zidan oldingi ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalardan farqli o‘laroq, kapitalistik ishlab chiqarish usuli o‘z mehnatini erkin sotuvchi ishchilarga ega bo‘lganligi uchun ham ancha ilg‘or deyish mumkin. AQShning Mustaqillik Deklaratsiyasida, Fransiyaning Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi va boshqa hujjatlarda barcha odamlarning teng bo‘lib tug‘ilishi va teng huquqlarga ega ekanligi.

 **Sotsialistik davlat.** Mazkur g‘oya dastlab nazariya sifatida K.Marks, F.Engels va V.Lenin asarlarida ilgari surilgan. Sotsialistik davlat, ularning fikricha, sotsialistik inqilob natijasida vujudga kelishi kerak, ya’ni hokimiyatni qo‘lga kiritish zo‘ravonlik yo‘li bilan amalga oshirilishi lozim. Eski davlat mashinasi sindirilib, proletariat (yo‘qsillar sinfi) diktaturasini o‘rnatish zarurati bunga sabab qilib ko‘rsatilgan. Ishchilar sinfi butun xalq manfaatlari yo‘lida ag‘darib tashlangan ekspluatator sinflar qarshiligini bostirib borishi, shuningdek, «yangi yorqin kelajak»ni bunyod etish yo‘lida xalqni o‘z orqasidan ergashtirishi kerak edi. Kapitalistlar hukmronligidan ozod bo‘lgan xalq ishlab chiqarish vositalarining umumiylashtirilishi sharoitlarida mehnat unumдорligini oshirishda mislsiz sakrashni sodir etadi, fan va texnikani rivojlantirishda buyuk



yutuqlarga erishiladi, barcha mehnatkashlar yangi hayotning faol buniyodkorlariga aylanadilar hamda ularning barchasi davlat ishla-rini boshqarishga jalgan etiladi, deb taxmin qilingan.

Bugungi kunda ushbu farazlarning aksariyati asossiz ekanligi namoyon bo‘ldi. Sobiq Ittifoq timsolida 70 yil mobaynida sotsialistik – totalitar davlatining yashaganligining o‘zi mazkur nazariyalarning utopiyadan –xomxayoldan iborat ekanligini isbotlab turibdi.

→ **Sivilizatsion yondashuv** – bu davlatlarni ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi bilan bir qatorda, ko‘proq ularning ma’naviy, axloqiy va madaniy rivojlanish darajasiga qarab tiplarga ajratishdir (Yellinek, Kelzen, Korkunov, Kryuger, Toynbi). Ingliz tarixchisi A.Toynbi sivilizatsion yondashuvning yorqin namoyondasi bo‘lib, u sivilizatsiyani diniy, ruhiy, madaniy va boshqa belgilariga ko‘ra birligini ko‘rsatuvchi jamiyatning yopiq, lokal holati, deb tushuntiruvchi ta’limot muallifi hisoblanadi. Shu belgilarga ko‘ra, u jahon tarixida 20 dan ortiq sivilizatsiyalarni ajratib ko‘rsatadi. Xususan, Qadimgi Sharq (Misr, Xitoy, Xindiston), Qadimgi Afina, Qadimgi Rim, O‘rtas asr davlatlari, hozirgi zamon davlatlari shular

jumlasidandir.

Davlat tipologiyasi yuzasidan yuqorida yondashuvlar huquqshunoslik fanida an'anaviy yondashuvlar sifatida qaraladi, shu bilan birga, bugungi kunda davlatlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga, muayyan xalqaro tashkilotlarga a’zoligiga, geografik joylashgan o‘rniga qarab ham tasniflash keng tarqalgan.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro’yxati

1. ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ ДАРСЛИК

Професор А.Қ.Худойбердиевнинг умумий



тахрири остида .ТОШКЕНТ – 2022 Профессор Худойбердиев А.К.  
2.N.S.Sodiqov ,M.X.Rustamov ,X.S.G'ofurov “Davlat va huquq asoslari  
“darslik.

3.O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023.

4.Advance.uz

5.Lex.uz.

6.Adliya.uz